


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.Q.Xasanova</b>	
So'z boyligi bilan ishlashda didaktik tamoyillarni joriy etish.....	5
<b>N.M.O'ranova, M.A.Qodirjonova</b>	
Talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali usullari.....	9
<b>D.M.Begmatova</b>	
Individual yondashuv asosida talabalarda madaniy immunitetni rivojlantirish jarayonida foydalilaniladigan texnologiyalarni tanlash tamoyillari .....	14
<b>Kh.O.Jurayev D.Kh.Fayziyeva</b>	
The role of media competence in the work of a teacher .....	18
<b>D.G.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning nazariy jihatlari .....	22
<b>F.I.Sharipova</b>	
Tibbiyot oliygochlarda ingliz tilining akademik yozish o'qitish masalari .....	26
<b>M.A.Tuxtabayev</b>	
Janubiy Koreya ta'lif tizimida muhandislik kadrlarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi.....	33
<b>S.R.Uraimov, M.Sh.Abdubabbov</b>	
Umumiylar mifik tablarida interaktiv trenajyorlardan foydalanish orqali jismoniy mashg'ulotlarni takomillashtirish.....	37
<b>S.R.Uraimov S.G.G'ofurov</b>	
Umumiylar mifik tablarida jismoniy tarbiya uchun innovatsion mobil ilova yaratish va uning samaradorligini o'rganish .....	41
<b>S.B.Qodirov</b>	
Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari .....	46
<b>A.R.Saydullayeva</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarida ma'naviy ideallar vositasida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	50
<b>D.A.Abdusamiyev</b>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida shaxs sifatida shakllanishi va uning maktab muhitiga moslashishi.....	55
<b>A.X.Gafforov</b>	
Maxsus fanlardan amaliy mashg'ulotlarni loyiha metodi asosida tashkil etishda raqamli ta'lif resurslarini qo'llash .....	59
<b>F.V.Xalilov</b>	
Ta'lifni raqamlashtirish sharoitida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolari.....	63
<b>A.M.Mirzakulov, G.I.Yuldasheva</b>	
Analogik muhitda kinematik hodisalarining simulyatsiya modellarini yaratish va o'qitish metodikasi.....	67
<b>S.R.Toshboyeva, S.I.Usmonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida diagrammalar asosida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.....	72
<b>M.E.Yulchiev</b>	
Psychological and pedagogical foundations for establishing an integrative e-learning environment in energy-related technical education.....	76
<b>M.O.Ismoilova</b>	
O'quvchilarida kitob mutolaasi madaniyatini shakllantirish usullari.....	81
<b>U.I.Obidjanov</b>	
Biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalarning roli va imkoniyatlari .....	85
<b>A.M.Tishabaev</b>	
1991-2005-yillarda O'zbekistonda milliy va ommaviy sport turlarining rivojlanishi.....	91



UO'K: 37.018.43:37.013.73

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MA'NAVİY IDEALLAR VOSITASIDA KASBIY  
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

**РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ  
СРЕДСТВАМИ ДУХОВНЫХ ИДЕАЛОВ ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ**

**DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS BY  
MEANS OF SPIRITUAL IDEALS THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS**

Saydullayeva Aziza Raximovna 

Farg'ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisip.f.b.f.d.(PhD)

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada e'tibor ideal inson tafakkuridagi namuna, mukammalik timsoli, normasi, axloqiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy va estetik ideallarning ichki xususiyatlari tahlili, Ideal tushunchasining ma'no va mazmuniga doir ta'riflar tadqiqotlari doirasida shakllantirish yoritib berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье уделяется внимание модели идеального человеческого мышления, символу совершенства, норме, анализу внутренних характеристик нравственных, религиозных, общественно-политических и эстетических идеалов, формированию определений смысла и содержания понятия идеального.*

**Abstract**

*This article focuses on the model of ideal human thinking, the symbol of perfection, the norm, the analysis of internal characteristics of moral, religious, socio-political and aesthetic ideals, the formation of definitions of the meaning and content of the concept of ideal.*

**Kalit so'zlar:** Ideal inson, ma'naviy ideal, ijtimoiy-pedagogik, xotin-qizlar, ehtiyoj, komil inson, tarbiya metodikasi, ijtimoiy-siyosiy va estetik ideal, rahnamo, tashabus, qonun, manfaat

**Ключевые слова:** Идеальный человек, духовный идеал, социально-педагогический, женщина, потребность, совершенный человек, методика воспитания, общественно-политический и эстетический идеал, лидер, инициатива, закон, интерес.

**Key words:** Ideal human, spiritual ideal, socio-pedagogical, women, need, perfect human, educational methodology, socio-political and aesthetic ideal, leader, initiative, law, benefit.

**KIRISH**

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy ideallarga aksilogik munosabatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish asosida milliy tarbiya metodikasini modernizatsiyalashga doir bir qancha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda komil insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish, jahon andozalariga javob beradigan yangi avlodni voyaga yetkazish, jumladan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy ideallarini tarbiyalash mazmunini, o'qitish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan yangicha dunyoqarashini shakllantirish ham maqsad qilinmoqda. Bunday xalqaro ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy ideallarga aksilogik munosabatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kash etadi.

Ideal inson tafakkuridagi namuna, mukammalik timsoli, normasi, axloqiy, diniy, ijtimoiy-siyosiy va estetik ideallarning ichki xususiyatlari tahlili yoki ideallar belgilari orqali umumiyligidan xususiylikni ifodalashga harakat qilinadi. Shuning uchun ta'riflar barcha ideallarga xos xususiyatlarni qamrab olmagan yoki ayrim ideal shakllari bilan chegaralanib qolgan. Ideal sezgi, idrok, konsepsiya, mulohaza, xulosa kabi inson bilishining shakllaridan sezilarli darajada farq qiladi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ideal har doim ham mavjud bo'lgan narsaning aksi bo'lib emas,

balki u haqiqatdan mavjud bo'lgan, ammo hali ham universallikka erishmagan hodisani aks ettirishi mumkin bo'lgan narsa-hodisani aks ettiradi. Ideal nima bo'lishi, qanday bo'lismeni aks ettiradi. Ko'pincha ideal tarixiy rivojlanish tendensiyalarining aksi sifatida gavdalaniib, rivojlanishning muhim imkoniyatlari aks ettiradi. Rivojlanayotgan ideal - bu ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqadigan, ammo hali biron bir narsa-hodisaga singib ketmagan narsaning aksidir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ideal tushunchasining ma'no va mazmuniga doir yuqoridagi ta'riflar bir-birini to'ldiradi, biroq, bu ta'riflar bizning nazarimizda, idealni eng yuksak va oliyanob maqsad, orzu va tilak sifatida idrok etish masalasi mohiyatini cheklab qo'yadi. Chunki ideal faqat maqsad, orzu va tilakdan iborat emas. Agar maqsad, orzu va tilak ideal sifatida olinsa, idealning umummillat miqyosida yoki shaxs uchun mushtaraklik jihatni fikran chetda qoladi. XX asrning oxiridagi tadqiqotlardan bo'lgan A.Lizogubning «Ideal» deb nomlanuvchi asarida insoniyatning ming yillar davomida shakllangan «Mutloq maqsadiini kvintessensiyasiga ko'ra uchta asosiy element vujudga keltirgan deb ko'rsatiladi: 1) shaxs va jamiyatning umrboqiyligi; 2) cheksiz qudratga ega bo'lish, ya'ni dunyoni o'zlashtirish uchun shaxs va jamiyatning cheksiz qobiliyatları; 3) cheksiz baxt, moddiy huzurhalovatga ega bo'lish». Ushbu muallif ideal tushunchasining falsafiy bilimlar tizimidagi o'rnnini o'z davrining mafkurasi nuqtai-nazaridan urib baholagan bo'lib, insonning mutlaq maqsadi insonning baxt singari psixologik tushunchalari orqali bunga oydinlik kiritgan.

Ideal muammosi bilan shug'ullangan olima E.M.Izzetova o'z ilmiy tadqiqotida ilmiy bilish va insonparvarlik ideallari o'tasidagi o'zaro munosabatlarni tadqiq etadi. Idealning ayrim belgilari, funksiyalarini ochib beradi. Ideal tushunchasi bo'yicha izlanish olib borgan bir qator o'tmis va hozirgi zamon faylasuflari o'z tadqiqotlari obyekti yokimavzulari qamrovi nuqtai-nazaridan kelib chiqib unga yondashganlar. Idealning mohiyati obyektivdir. Shu sababli u insonning subyektiv, perceptiv-hissiy jihatlariga birlamchi bog'lanmagan.

Mamlakatimizda ham idealning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik jihatlarini ilmiy tahlil qilish, idealning milliy xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq jiddiy tadqiqotlar yuzaga kelgan. Xususan, S.S.Agzamxodjayevaning tadqiqotida «ideal» va «ijtimoiy ideal» tushunchalari o'tasida ma'lum bir farqlar mavjud. Bu farqlar idellarning mohiyatida emas, balki o'zgarishlari va shakllaridadir, deb ko'rsatiladi. Biz bu fikrni rivojlantirib, mazkur farqlar ideallarning mohiyatida ham, ko'rinish va shakllarida ham namoyon bo'ladi, degan fikrdamiz. Negaki, agar ideal tushunchasi «maqsad» («hayotiy maqsad»), «ixlos», «o'y», «xayol», «intuitsiya», «fantaziya», «utopiya», «bashorat» kabi tushunchalar bilan ham bog'liqligini inobatga olsak, yuqoridagi tushunchalar barcha ideal shakllariga mos kelmasligi mumkin. Ushbu tushunchalar axloqiy, estetik ideallar mazmunini ochishga ko'proq imkoniyat bersa, «ijtimoiy ideal»ni «intuitsiya», «xayol» va «fantaziya», «utopiya» tushunchalari bilan izohlab bo'lmaydi.

Umuman olganda, ideal inson ongidagi tarqoq g'oyalilar, yuksak maqsadlarni tizimlashtiradi, gomogenlashtiradi va qo'l yetmaydigan darajada mavhum mukammallikni yaratadi. Inson tabiatiga ko'ra doim o'zidan kuchli mavjudotga, o'zidan pok ruh va go'zallikka intiladi. Bu o'z navbatida insonda ma'naviy yaratuvchanlik, ijodkorlikka bo'lgan rag'batni oshirgan. Ayniqsa, u falsafiy qadriyatlar tizimida sayqallahib, optimal kuchga aylangan va transsidental xususiyat kasb etib borgan. Inson dastlab olamni ma'naviy o'zlashtirishidan boshlab hozirgacha eng umumiyl fikr, g'oya, nazariyalarga intilib yashaydi yoki yaratuvchi, iloh, xudo singari transsidental tushunchalarni ma'naviy olamingdi ideali tarzida saqlabkeladi. Inson xudo obrazini faqat hissiyoti uchun emas, balki u baxtli yashash, jannati bo'lish, boqiy lazzatni his qilish uchun yaratgan va bunga o'zi ishonib, e'tiqod qilgan. Shuning uchun inson tafakkuri yaratgan ideal tushunchasi falsafiy bilimlar tizimida doim markaziy o'rinni egallab kelgan.

Ko'p tomonlama tahillar ideal tushunchasining konstruktiv, yo'naltiruvchi va ko'pfunksiyali xususiyatidan kelib chiqib, biz idealga quyidagicha ta'rif berdik: Ideal – bu inson ongidagi narsa-hodisa, voqeа yoki g'oyalarning mukammalligini, namuna, o'rnak, mezon darajasidagi obraz, faoliyat darajasida maqsad, harkatning dominant belgisi, milliy, umuminsoniy, diniy, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarda konstruktiv-motivatsion xususiyat, shaxsnинг qobiliyat, ehtiyoj, faoliyat turi, yoshiga, jinsiga nisbatan shakllanadigan mukammallik namunasi, mutlaq haqiqat darjasasi, go'zallik, oliyanoblik va pokdomonlik timsolidir.

Idealga yaqin bir qator tushunchalarning o'zaro farqini anglash lozim. Ideal haqida nazariy yondashishlar shuni ko'rsatdiki, «ideal», «ideallik» «ideallashtirish», «idealizm», «ideya (g'oya)»

tushunchalari tez-tez sinonim tushunchalar kabi ko'zga tashlanadi. Ular ba'zida substansional yaqinlikdagi tushunchalar kabi qo'llaniladi. Shuning uchun ushbu tushunchalarning ideal bilan o'zaro bog'liqligi va ta'sirini aniqlash zarurdir.

E.V.Ilyenkovning fikricha, «ideallikka intilish kishilar va millat hayot, faoliyatni boshqarib turuvchi axloqiy normalar, huquqiy talablar, davlat siyosiy hayotini tashkil qilish shakllari, faoliyatning barcha sohalarida qonunlashtirilgan ko'rinishdagi marosimlar, hamma uchun majburiy bo'lgan hayot qoidalari, qat'iy reglamentlar va hattoki, tafakkur yuritishning mantiqiy talablarigacha kiradi. Ijtimoiy ongning barcha strukturaviy shakl va sxemalari maxsus, o'z ichida tashkil etilgan faoliyat sifatida uni tashqi shakllar bilan bog'liqligi sifatida individual ongga qarama-qarshidir. Ideallik ong va xohish shakli, inson ongi, xohishi bilan boshqariladigan qonun ongli-istikli faoliyatning obyektiv majburlovchi tizimi sifatida namoyon bo'ladi».

Ideal ijtimoiy ahamiyatga molik muhim kategoriya hisoblanadi. Shu tufayli ham ijtimoiy ideal "reallik" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq ravishda talqin etiladi. Binobarin, "ijtimoiy ideal" atamasi o'zida ijtimoiy borliqning barcha jihatlarini bilish, anglash, ezungulikka qaratilgan bilimlar majmui, ikkinchidan esa ularga bo'lgan intilishni ifodalaydi. Demak, idealga mavjud reallikdan qoniqmaslik jamiyat, davlat hayotini takomillashtirish, yuksaklikka ko'tarish istagining ifodasi sifatida qarash mumkin. Va mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum va munosabatlarda ijtimoiy idealning kurtaklari shakllangan bo'ladi.

Ideal – inson ongida kelajak haqidagi tasavvuri, obrazi, modelidir. Shuning uchun har qanday ideal kelajakka yo'naltirilgan, kelajakdagи hayotni, jamiyatni, tuzumni gipotetik tasavvur etishdir. Yuqoridagi yo'nalishlarda har doim ham "ideal" tushunchalari ishlatalavermaydi, biroq ular negizida kelajakdagи hayot, jamiyat, tuzum gipotetik nazarda tutilladi. Aynan shu nuqtai nazardan ular ijtimoiy idealning yo'nalishlaridir,- deb yozadi olima S.S.Agzamxodjayeva o'z ilmiy tadqiqotida. Demakki, Agzamhodjayevaning bu fikri ijtimoiy idealda shaxsnинг jamiyatga xizmat qilishi, jamoa manfaatlarini shaxsiy manfafatlardan ustun qo'yishi zarurligini ifodalaydi.

### NATIJALAR

Har bir inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunga to'la erishib bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy-hayotiy komillikni qo'lga kiritadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida ma'naviy idealga mualliflik tarifimizni ishlab chiqidik.

Ma'naviy ideal – bu insonning axloqiy, estetik va ruhiy barkamollikni tasavvur qilishi hamda unga intilish jarayonida shakllanuvchi yuqori darajadagi qadriyatlar va yo'nalishlar tizimi. Ma'naviy ideal shaxsnинг ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan, uning axloqiy meyorlari va intilishlarini boshqaruvchi ichki ko'rsatkich bo'lib, jamiyatning madaniy-tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun - Muhammad alayhissalom, nasroniyalar uchun - hazrati Iso, yahudiy dinidagilar uchun - hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy-axloqiy va tarixiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha tuzum asoschisi Lenin - eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday qabul qilinardi. Hozir esa «Kuch - adolatda!» degan shiorni hayotining ma'nosini deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan tarixiy ideal, adolatlari davlat rahbarining namunaviy timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy-axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin. Bunday salbiy hodisalarga qaramay, ideal, umuman, jamiyatda, shaxs hayotida ijobjiy hodisa. U insoniyat tarixida yorug' mayoq vazifasini o'tab kelmoqda, bundan keyin ham uning asosiy vazifasi shunday bo'lib qolajak. Chunki idealda har bir inson o'z baxtingining hissiyotli ifodasini ko'radi, hayotining ma'nosini unga qarab intilishda deb biladi.

### MUHOKAMA

Shunday ekan, ma'naviy ideal – ijtimoiy ma'noda insonning, turli ijtimoiy guruhlarning maqsadi, qadriyatlar hamda emotsiyonal holatidan kelib chiqqan holda hayotga nisbatan aniq va mavhum munosabatda bo'lishi demakdir. Uning aniq xususiyati o'tmish va hozirgi kunga tegishli bo'lsa, mavhum holati ko'proq kelajakka yo'naltirilgan g'oyalarda o'z ifodasini topadi.

Fikrimizcha, olib borilgan tadqiqotlarda ma'naviy idealning irratsional hamda emotsiyal xususiyatlari ifodalangan. Zero, ba'zi hollarda ma'naviy ideal belgilari hayotda real mavjud bo'lmasligi ham mumkin. Ya'ni, u hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti – o'tgan zamon bilan belgilanadi. Shunday qilib, kishilarning ma'naviy idealga bo'lgan intilishi ularning o'z zamonasidagi odatiy sharoitga sig'maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan xatti-harakatidan ham iborat deb qaraladi. O'z navbatida mazkur xatti-harakat uchun namunani ular kelajakdan topolmaydilar, chunki bu murakkab voqelikdagi ibrat tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi. Jamiyat miqyosida idealning reallashuvi innovations yondoshuvni vujudga keltiradi. Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg'or tajribadan foydalishga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil qilish, boshqaruv sohasida yangilik kiritish. U quyidagi holatlarni o'z ichiga qamrab oladi: yangilik yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish. Innovatsiya – inglizcha innovation yangilik kiritish, ixtiro yoki yangilik demakdir. Bunga misol sifatida fuqarolik jamiyatini barpo etishni keltirishimiz mumkin bo'ladi. Zero, bu jamiyat kishilarning erkinliklari va huquqlarini to'la ifoda etishlariga keng imkoniyat yaratadi. Albatta, real hayotda bunga to'la erishib bo'lmaydi, lekin butun insoniyat ana shu ijtimoiy namunaga intilib yashaydi.

Ma'naviy ideallikning ikki – umuminsoniy (ijtimoiy) va shaxsiy (individual) – darajasi qayd etiladi. Bunday bo'linish umumiylig bilan individuallikning namoyon bo'lishi, ular orasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish yo'li deb baholanadi. Ma'naviy ideal jamiyatda turli funksiyalarini bajaradi, ularning amalga oshishi reallikda o'z aksini topadi. Mazkur mexanizm: kishilar ruhiyatidagi loqaydlik, befarqlik, irodasizlik, kelajakka bo'lgan ishonchsizlikni bartaraf etishga doir sog'lom g'oyalarni shakllantirishda turli qarashlarni muvofiqlashtirish; ezgu maqsadlarga yo'naltirilgan ideallarni insonparvar qadriyatlar va mo'ljallarni belgilashga yo'naltirish; kishilar faoliyatini tartibga solishda turli ijtimoiy ong shakllari tizimini yangilash; shaxs ma'naviy kamoloti uchun zarur bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar namunalarini namoyish etish.

Shunday ekan, bu funksiyalar ma'naviy idealning asosiy maqsadi negizida – jamiyatdagi kishilar va guruhlar faoliyati, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni, ijtimoiy-siyosiy uyushmalarni muayyan (axloqiy, huquqiy) namunalar asosida tartibli ravishda ish yuritishlariga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan g'oyalalar, qarashlar, paradigmalar, innovatsiyalar bilan belgilanadi. Mazkur faoliyati jamiyat hayotida qaror toptirish esa ijtimoiy reallikning asosiy omili hisoblanadi. Bunda e'tibor ma'naviy ideal funksional namoyon bo'lishiga oid falsafiy bilimlar tizimiga qaratiladi.

Ma'naviy ideallar o'z oldiga qo'ygan yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Zero, bunday ideallar xalqimizga ota-bobolaridan meros. Ma'naviy ideal har bir xalqqa xos bo'lgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar hamda turli bilimlarni o'zida ifoda etishi bilan ham ajralib turadi. Hozirgi kunda aksariyat millat vakillari o'z millati erkinligi hissini yo'qotish chegarasidan asta-sekin chiqib kelmoqda. Har bir millatning o'zi belgilab olgan hayotiy rejali, jamiyat tarraqqiyoti istiqbollarini belgilashi aqlning shunchalik quruq o'yini emas. Zero, yuksak asosga ega bo'lgan milliy maqsadlar, millat hayotini saqlab turadi. Chunki, har bir millat vakili o'z hayotlarini ana shu milliy maqsadlar va ideallarga moslab, muvofiqlashtirib yashaydi. Demak, ma'naviy idealning g'oyaviy manbalari, o'lchamlari va kichik tizimlar xarakteristikasidan kelib chiqadi. Biroq, ma'naviy ideal va reallikning bunday manbalari, o'lchamlari yoki kichik tizimlari xarakteristikasini tahlil qilishda, ularning o'zaro munosabatlarida turli xil murakkabliklar yotadi. Bu holatni aniqlashtirishda esa dialektik munosabatning o'zi kamlik qiladi. Shu ma'noda ma'naviy ideal va reallikni tadqiq etishda zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fan sohalarining yutuqlariga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ular ijtimoiy jarayonlarning ichki va tashqi bog'lanishlarini aniqlashda ma'naviy idealva reallik bir-biriga o'tib turadi. Ular ba'zan cheksiz, ba'zida chekli yoki chegaranlangan, hajm va darajasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ma'naviy idealva reallik nisbati bugun biz qurayotgan jamiyat idealining asosiy borlig'ini tashkil etadi hamda u umuminsoniy va milliy ideal bilan uyg'unlashib boradi.

O'zbek xalqi o'zining qadimiyligi, boy milliy ideallariga ega. Uning ildizlari eramizdan oldingi X asrlarga borib taqaladi. Ko'hna Sharq og'zaki ijodining ilk namunalarini bo'lmissi Mitra, Ardisura, Anaxita, Vertragna singari ma'budalarga bag'ishlangan afsonalarda milliy ideallarning mifologik dastlabki andozalarini Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari orqali esa vatanparvarlik, insoniylik, hamjihatlik, mardlik va jasorat, ilm o'rganish, kasb-hunar egallahsha da'vat, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, halollik, poklik, do'stlik, sadoqat, kamtarlik, fidoyilik kabi mukammallahgan ideal va g'oyalar bilan tanishamiz.

Ta'llim muassasalari uchun chiqarilgan "Ideal yapon yigit -qizining fazilatlari" deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 fazilatni shakllantirish vazifasi belgilab berilgan. 16 fazilat 4 guruhta bo'lingan. Bular: 1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o'ziga xoslikni rivojlantirish, mustaqil bo'lish, o'z xohishlarini idora qila olish, piyetet (ehtirom) tuyg'usiga egalik; 2) oila boshlig'iغا xos sifatlar: o'z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish; 3) ijtimoiy sifatlar: o'z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo'shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish; 4) fuqarolik sifatlari: vatanga sodiq bo'lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo'lishni o'rgatadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkunki, ideal qaysi zamon, qaysi jamiyat, qaysi millat tafakkurida shakllangan bo'lmasin, u albatta, murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida shaxs ongi va ruhiyatida ijtimoiy hayotiy tajriba va ehtiyojlarining o'ziga xos invariant shakli sifatida qaror topadi. U shaxsning qobiliyat va salohiyati, hayot tarzi, oilaviy an'ana, diniy rasm-rusumlar, badiiy-estetik tajriba va ehtiyojlari ramzi, uning hissiy va intellektual taraqqiyot darajasi, faoliyat turlari, muloqot va munosabatlari xarakteri, o'tmish va o'z davridagi ibratli shaxslar timsoli va hokazo omillar ta'sirida shakllangan. Ideal individual qiyofa, namuna, obraz tarzida har bir inson qalbi va ongida shakllanadi. Uning tarbiyaviy mohiyati shundan iboratki, u har bir shaxsga tabiat, jamiyat va insonga nisbatan shaxsiy munosabatlarni oldindan belgilashga va shunga yarasha ijodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi o'z tafakkur va faoliyat yo'nalishini belgilab olishga imkon beradi. Ideal kimda va qaysi shakldabo'lishidan qat'iy nazar optimistik xarakterga ega bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: "Yuridik adabiyotlar publish". 2023. –Б. 112.
2. Uzlusiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi". - Toshkent.: 2019.-B. 12.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son «Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida »gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017-yil 28-iyul.
4. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004. – 128 б.
5. Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. –Т.: TURON-IQBOL, 2006. –352 b.